

2025-yil mobaynida Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi tomonidan amalga oshirilgan ishlar

Ishlab chiqilgan axborot tizimlari	Takomillashtirilgan axborot tizimlari	Sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi
<p>“Ijtimoiy faollik indeksini baholash va grantlarni qayta taqsimlash” axborot tizimi ishlab chiqildi.</p> <p><i>Tizim orqali grantlarni qayta taqsimlash bo'yicha 100 mingdan ortiq talabalar arizalari shakllantirildi.</i></p>	<p>“Akademik litseylarda ta'lim jarayonlarini boshqarish” axborot tizimida elektron jurnal, talaba hujjatlari, turli xil statistik ma'lumotlarni shakllantirish hamda hisobotlarni yuritish raqamlashtirildi. Shuningdek, akademik litsey o'quvchilari uchun EMIS MOBILE mobil ilovasi ishlab chiqildi.</p> <p><i>Ma'lumot uchun: Bugungi kunda ilovadan 20 mingdan ortiq o'quvchilar foydalanmoqda.</i></p>	<p>Talabalarning turli yo'nalishlardagi ma'lumotlarini tahlil qilish va ularga individual maslahatlar berishga qodir sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan HEMIS AI servislari majmuasi ishlab chiqilib, my.hemis.uz platformasiga integratsiya qilindi hamda barcha oliygohlarga joriy etildi. Mazkur servislari orqali GPA, davomat va dars jadvali tahlili, tavsiyaviy kurslar, plagiat tekshiruvini, moliyaviy holat tahlili va HEMIS Chatbot AI kabi modullar talabalar so'rovlarini tezkor va aniq tahlil qilib, zarur javoblarni taqdim etmoqda.</p>
<p>Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 4 ta yangi xizmatlar ishga tushirildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Akademik litseylarga kirish uchun onlayn hujjatni topshirish; - O'quv adabiyotini ekspertizadan o'tkazishga ariza yuborish; - Davlat oliy ta'lim muassasalari talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini qoplab berish bo'yicha ariza yuborish; - Davlat oliy ta'lim muassasalari talabalarini uchun to'lov-kontrakt shartnomalarini olish. 	<p>Yagona ta'lim xizmatlari portalini (my.edu.uz) takomillashtirildi hamda platforma orqali 2025/2026 o'quv yili ta'lim muassasalariga qabul jarayonlarida akademik litseylarga, texnikumlarga, texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlaganlarni OTMlarga suhbat asosida qabul qilish bo'yicha, oliy ta'lim muassasalarining ikkinchi ta'limiga va magistraturasiga qabul qilish bo'yicha abituriyentlardan arizalar onlayn qabul qilindi.</p> <p><i>Ma'lumot uchun: akademik litseylarga kirish uchun 49 mingdan ortiq, texnikumlarga kirish uchun 294 mingdan ortiq, texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlaganlarni OTMlarga suhbat asosida qabul qilish bo'yicha 6,5 mingdan ortiq, oliy ta'lim muassasalarining ikkinchi ta'limiga 22,5 mingdan ortiq hamda magistraturasiga 40 mingdan ortiq arizalar qabul qilindi.</i></p>	<p>Talabalar bilimini baholashning shaffof va adolatliligini ta'minlash maqsadida sun'iy intellekt asosida yuzni tanish va xatti-harakatlarni tahlil qiluvchi “AI-Proctoring” (ai-proctor.edu.uz) tizimi ishlab chiqildi. Hozirgi kunda axborot tizimi sinovdan o'tkazilmoqda.</p> <p><i>Ma'lumot uchun: Mazkur tizim talabaning shaxsini tasdiqlash, imtihon paytida qoidalarga rioya etilishini adolatli nazorat qilish va boshqa yordamchi vositalardan foydalanmasdan, talabaga to'g'ri baho berilishini kafolatlaydi hamda o'qituvchi aralashuvisiz natijalarning xolisligini oshirishga xizmat qiladi.</i></p>

<p>Oliyoghlarda tyutorlar faoliyatini raqamlashtirish, talabalar bilan ishlash jarayonlarini optimallashtirish hamda tyutor ish samaradorligini oshirishga qaratilgan Tyutor HEMIS platformasi ishlab chiqildi. Ushbu platforma orqali tyutorlar tomonidan talabalarning o'zlashtirishini nazorat qilish, ijara manzillari hamda ijtimoiy holatini monitoring qilish, shuningdek, tyutorlarning kundalik vazifalari va hisobotlarini yuritish imkoniyatlari yaratildi.</p>	<p>“Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” (HEMIS) axborot tizimida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - plagiat tizimlariga integratsiya qilinishi natijasida barcha oliygohlar bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ishlarining plagiatga tekshirilganlik natijasini avtomatik shakllantirish imkoniyati yaratildi; - talabalar va professor-o'qituvchilarning chet tili sertifikatlari reestrini yuritish yo'lga qo'yildi; - tegishli hujjatlarni Elektron raqamli imzo (ERI) orqali tasdiqlash jarayonlari joriy etildi; - talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish funksionali joriy qilindi; - Bitiruvchilar bandligini monitoring qilish moduli ishga tushirildi. 	<p>Bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida EduCareer platformasiga sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etildi. Platforma doirasida bitiruvchilarning bilim va ko'nikmalarini kompleks tahlil qilish, ularning kasbiy mahoratiga mos ish va amaliyot imkoniyatlarini tavsiya etish hamda suhbat jarayonlariga tayyorlash uchun HR AI asosidagi interaktiv suhbat mexanizmlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida bitiruvchilarning bandligi va kasbiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilinib, ta'lim muassasalari hamda ish beruvchilar uchun analitik va prognoz ma'lumotlar shakllantirish imkoniyati joriy etildi.</p>
<p>“Oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari talaba va bitiruvchilarining amaliyot o'tashi hamda ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashuvchi — Karyera” elektron platformasi ishlab chiqildi.</p>	<p>Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish (EduBilling) axborot tizimida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt shartnomasi summalarini qoplab berish jarayonlari avtomatlashtirildi; - to'lov-kontrakt shartnomalariga qo'shimcha kelishuv qilish uchun ariza yuborish funksionali joriy etildi; - 5 ta oliygohdan birortasiga kirolmagan hamda to'plagan balli boshqa oliygohdagi to'lmagan yo'nalishga to'g'ri keladigan abituriyentlar uchun ariza yuborish imkoniyati yaratildi. 	<p>Tyutorlar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Tyutor HEMIS platformasida sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan davomat va tashriflar tahlili modullari ishga tushirildi. Mazkur modullar yordamida talabalar davomat ko'rsatkichlari hamda tyutorlarning talabalar yashash joylariga amalga oshirgan tashriflari bo'yicha ma'lumotlar AI yordamida tahlil qilinib, tyutorlar uchun tezkor va aniq analitik ma'lumotlar shakllantirilmoqda.</p>

<p>“Oliy ta’lim muassasalari moliya tizimi” platformasi yaratildi.</p>	<p>Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining diplom ma’lumotlari bazasi (diplom.edu.uz):</p> <ul style="list-style-type: none">- diplom ma’lumotlarini tasdiqlash bo’yicha yuborilgan arizalarni Elektron raqamli imzo (ERI) orqali tasdiqlash imkoniyati yaratildi;- statistika dashboard sahifasi takomillashtirilib, kengaytirilgan statistik ko’rsatkichlarni shakllantirish hamda yuklab olish imkoniyatlari joriy etildi. <p><i>Ma’lumot uchun: 1991-2025-yillar davomida bitiruvchilarga berilgan 2,2 mln. diplom ma’lumotlari raqamlashtirildi.</i></p>	<p>Diplom axborot tizimida sun’iy intellekt asosidagi chat-bot ishga tushirildi. U foydalanuvchilarga tezkor muloqot orqali javob berish hamda axborot tizimidan foydalanish bo’yicha ko’nikmalar berish uchun mo’ljallangan.</p>
--	---	--